



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

F A R M O Y I S H I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 28-dekabrda PF-4904-son Farmoni bilan davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari va mansabdor shaxslari, barcha darajadagi hokimlarga jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining sayyor qabullarini, shu jumladan Xalq qabulxonalari tomonidan tashkil etiladigan qabullarni muntazam o‘tkazib borish vazifalari topshirilgan.

Mazkur vazifalar ijrosini ta‘minlash **maqsadida:**

1. Raqamli texnologiyalar vazirligi rahbariyatining 2024-yil I yarim yilligida respublika hududlarida o‘tkaziladigan sayyor qabullari jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2. Vazir o‘rinbosarlari va maslahatchilari tasdiqlangan sayyor qabul rejasiga muvofiq belgilangan muddatlarda joylarda jismoniy va yuridik shaxslar bilan uchrashsin va murojaatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan masalalarning joyida ijobiy hal qilinishi bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rib borsin.

3. Vazirlikning hududiy sho‘balari, tizimidagi inspeksiya, agentlik, aksiyadorlik kompaniya, jamiyat, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari:

2024-yil I yarim yilligiga mo‘ljallangan sayyor qabullar jadvalini ishlab chiqsin hamda o‘tkizilayotgan sayyor va ommaviy qabullarning natijadorligi hamda murojaatlarda ko‘tarilgan muammo va masalalarning mazmun-mohiyatiga jiddiy e‘tibor qaratsin;

hududiy sho‘balar, korxona tashkilotlarning birinchi rahbarlari jismoniy va yuridik shaxslar vakillari tomonidan kelib tushgan barcha murojaatlar qanoatlantirilishini 80 foizga yetkazishga shaxsan mas‘ulligi belgilansin;

sayyor qabullar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuniga qadar Vazirlikka ma‘lumot kiritib borsin.

4. Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (M.Azimov), Murojaatlar bo‘limi (D.Pulatov), Hududiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (J.Jafarov), Axborot xizmati (Sh.Axmatov):

hududiy sho‘balar bilan birgalikda jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish bo‘yicha sayyor qabullar jadvaliga muvofiq qabullar belgilangan muddatlarda hududlarning chekka-chekka tumanlarida o‘tkazilishini tashkil etsin, sayyor qabullar bo‘yicha ma‘lumotlarni umumlashtirib, tahlil qilgan holda har chorak yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga tegishli ma‘lumotlar kiritib borilishini ta‘minlasin;

Respublika hududlarida vazirlik rahbariyati tomonidan sayyor qabul o'tkazilishidan 10 kun avval e'lon berilishi va o'tkazilgan sayyor qabullar vazirlikning veb saytida, ijtimoiy tarmoqlarda va ommay axborot vositalarida yoritib borilishini ta'minlasin.

5. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



Sh. Shermatov

Toshkent sh.
2024-yil "30"-yanvar
5-F-son

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Raqamli texnologiyalar vaziri



Sh. Shermatov
2024-yil 30-yanvar

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rahbariyati tomonidan 2024-yil I yarim yilligida respublika hududlarida o‘tkaziladigan jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish bo‘yicha sayyor qabullar
J A D V A L I

T/r	Vazir, vazir o‘rinbosarlari va maslahatchilari	Lavozimi	Viloyat nomi, sayyor qabul oy					
			yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun
1	Sh.X.Shermatov	Vazir	Samarqand viloyati					
2	O.A.Pekos	Vazirning birinchi o‘rinbosari				Farg‘ona viloyati		
3	J.T.Maxsudov	Vazir o‘rinbosari			Surxondaryo viloyati			
4	R.O.Karimjonov	Vazir o‘rinbosari		Xorazm viloyati				
5	J.Sh.Egamberdiyev	Vazir maslahatchisi					Jizzax viloyati	
6	D.T.Rustamov	Vazir maslahatchisi						Sirdaryo viloyati

Izoh: Xizmat zaruriyati tug‘ilgan hollarda sayyor qabul kunlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.